

PEDAGOGIKANING KORREKSION – RIVOJLANTIRUVCHI FAOLIYATI

JDPI Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2 bosqich magistranti Baratova Yulduz

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik faoliyat, korreksion faoliyat, pedagogik korreksion rivojlantiruvchi faoliyatlar va ularni amaliyatda qo'llash haqida yozilgan bo'lib, Korreksion pedagogik faoliyat jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinishi haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Pedagogika, korreksiya, pedagogik faoliyat, korreksion faoliyat, diagnostika, anomal bola, anomaliya, suhbat metodi, kuzatish metodi, rasmlarni o'rganish metodi, tajriba-psixologik tadqiqotlar metodi, testlar metodi

Pedagogik lug'atda "korreksiya" tushunchasi (yunoncha "correctio" — tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarining psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalgalash oshirilishini ta'minlaydi.

Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lif das turiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksiya-hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir. Bir qator olimlar: R.S. Nemov, D. V. Olshanskiy, G. Broyer, G. Matteslar: "Pedagogik korreksiya-tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi oldindan yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etish jarayonidir" - deb hisoblaydilar. N. V. Kuzmina bu jarayonni: «Korreksiyalash jarayoni-o'quvchilarning ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi va turli ijobjiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi faoliyat turidir» -deb tavsiflaydi. Korreksiyalash ta'sirida o'quvchi-yoshlarning g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiya masalalari amalgalashadi. Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lif jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyuştirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi.

Demak, pedagogik diagnostika va korreksiya jarayonida bulardan birortasi (tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari) e'tiboridan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o‘rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo‘lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- 2) differensatsiyali o‘qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- 3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- 4) rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- 5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo‘qotish yoki kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- 6) anomal bolalikning oldini olish bo‘yicha profilaktik chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- 7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi vo‘nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiatи va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o‘rganish.
2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o‘rganish.
3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.
4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta’sir ko’rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.
5. Ommaviy umumiy o‘rta ta’lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalarning umumiy va maxsus ta’limi mazmunini tahlil qilish.
6. Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy vo‘nalishlarini aniqlash.
7. Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o‘qituvchilarni tayyorlashda zarur o‘quv-metodik bazasini yaratish.

Psixologik-pedagogik tekshirishlar quyidagi metodlari yordamida tashkil etiladi:

1. Suhbat metodi. Suhbat bola bilan aloqa o‘rnatish vositasi bo‘lib, anomal bolaning shaxsi, emotsional-irodaviy sifatlari, xulqi, shuningdek, rivojlanishidagi chetlanishlarning sabablari haqidagi ma’lumotni to‘plashga imkon beradi. Agarda bolaning nutqida, eshitish qobiliyatida nuqsonlari bo‘lsa, yoki munosabatga qiyin kirishsa suhbatni tashkil qilish tavsiya etilmaydi. Bunday hollarda bolani qiziqtiradigan ko‘rgazmali materialdan foydalanish mumkin.

2. Kuzatish metodi. Kuzatish bolaning konsultatsiyaga kelishidan avval boshlanadi va yaxlit tekshirishlarni o'tkazish jarayonida davom ettililadi. Kuzatish har doim aniq maqsad asosida o'tkaziladi. Bolani o'zin faoliyatini tashkil etish jarayonida kuzatish alohida ahamiyatga ega, ular bola bilan aloqa o'rnatishga imkon beradi. Ayrim hollarda o'yinchoqlar yordamida maxsus tekshirishlar o'tkaziladi.

3. Rasmlarini o'rganish metodi. Rasmlar bolani o'rganishda muhim differensial-diagnostik vosita hisoblanadi. Bolada pedagog tomonidan tavsiya etilgan rasmlar xavotir uyg'otsa, bolaga erkin rasm chizishni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Uning mavzu tanlay olishi, tasvirlash xususiyatlari, rasm chizish jarayoni yakuniy tashhis uchun qimmatli ma'lumot hisoblanadi. Aqli zaif bolalar odatda mavzuni tanlashga qiynaladilar, ular sujetlar yaratmay, alohida odatiy predmetlarni tasvirlashga harakat qiladilar.

4. Tajriba-psixologik tadqiqotlar metodlari. Ular maxsus o'rganilishi kerak bo'lgan psixik jarayonni qo'zg'atuvchi ma'lum vaziyatlarni yaratishni ko'zda tutadi. Tajriba metodikalari yordamida u yoki bu holatlarning sabablari va mexanizmlarini olib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

5. Testlar metodi. Bu metod bolalarning psixodiagnostik maqsadlarda tekshirishda qo'llaniladi. D.Veksler tomonidan asoslangan moslashtirilgan test ommaviylashgandir. Undan foydalanish individualpsixologik tekshirishlarni o'tkazishda bola haqida zarur qo'shimcha ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

O'smirlik davrida o'quv fanlarini turli o'qituvchilar tomonidan o'qitish munosabati yuzaga keladi. Bu orqali ularda kattalar shaxsi va faoliyatini baholashning yangi mezonlari shakllana boshlaydi. Masalan, bilimli, talabchan, haqqoniy, o'quv materialini qiziqarli va tushunarli yo'l bilan yetkaza oladigan o'qituvchilami ajratmaydilar, balki ularni ko'proq hurmat qiladilar, yaxshi ko'radilar va ular bilan bo'ladigan munosabatlariga ham katta e'tibor beradilar. 10-15 yoshli bolalaming faoliyat motivlarida ham o'zgarishlar amalga oshadi.

Ilk o'smirlik davrida ko'pchilik yoshlar o'zlariga shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta bo'lgan sari ularning o'z-o'ziga bergen bahosi differensial xarakterda (xulq-atvor, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutishi va ayrim xatti-harakatlar) namoyon bo'la boshlaydi. Pedagogika oliy o'quv yurtida bo'lajak o'qituvchilami psixologik-pedagogik jihatdan tayyorlashni takomillashtirish talabalardagi o'z kasbiga boigan psixologik qarashni qayta qurish hamda "ideal o'qituvchi" obraziga tayangan holda olib borilishi zarur. Kasbiy faoliyat bo'lajak o'qituvchi shaxsini rivojlantirishning asosiy vositasi ekanligi sababli talabalarining uzluksiz amaliyotda qatnashish jarayonini sifat va miqdor jihatdan kuchaytirish lozim.

Talabalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini rejorashtirishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ayrim hollarda ichki va tashqi vositalar, omillar ta'siri ostida uning ruhiy dunyosiga umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, istiqbolga ishonmaslik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his-tuyg'ular

namoyon bo‘ladi. O‘z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonmaslik, o‘qishga nisbatan esa salbiy munosabatning kelib chiqishi talaba ruhiyatida keskin tushkunlikni keltirib chiqarishi mumkin. Buning oqibatida ayrim yoshlar o‘ta zararli oqimlarga – aqidaparastlik, terrorchilik illatlariga qo‘silib qolishi, giyohvandlik, ichkilik, qimorbozlik, turli jinoyat ishlari kabi jirkanch yo’llarga kirib qolishlari mumkin.

Uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya ishlari metodik jihatdan to‘g’ri yo’naltirilganda jamiyatning har bir a’zosi ongiga milliy istiqlol g’oyalarini singdirishda, mafkuraviy immunitet hosil qilishda, o‘quvchilarning o‘zligini anglashlarida, vatanparvarlikni, millatlararo totuvlikni, diniy bag’rikenglikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo‘lgan fazilatlarni: sofkillik, to‘g’riso‘zlik, adolatparvarlik, sahovatlilik, ornomuslik, tantilik va boshqa sifatlarni tarkib toptirishda ijobiy samara beradi. Pedagogik tashxislash va yoshlarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo‘lib borishi mustaqil O‘zbekistonning har tomonlama rivojlanishidan, jamiyat a’zolarining ma’naviy-ma’rifiy hayotida paydo bo‘lgan muammolarini hal etilayotganidan dalolatdir.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

Usanova O.N. Psixik rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar. – M.: Pedagogika, 1995.

Rahmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. – T., 1990.

Babanskiy Y.K. Metodi obucheniya v sovremennoy obsheobrazovatelnoy shkole. – M.: Prosvesheniye, 1985.

Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.

Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar / Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiyl tahriri ostida. – T.: Iqtisod-moliya, 1996.

Новоторцева Н.В. Коррекционная педагогика и специальная психология: Словарь. – М.: Педагогика, 1999

Uktamova, U., & Berdiyorova, S. (2020). THE ROLE OF COMMUNICATION IN PEOPLE'S RELATIONSHIPS AND WAYS OF LEARNING TO COMMUNICATE. Архив Научных Публикаций JSPI.

Uktamova, U. (2020). KICHIK MAKTAB YOSHIDA QOBILIYATNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. Архив Научных Публикаций JSPI.

Uktamova, U. (2020). Ўқувчиларга маънавий-ахлоқий тарбия бериш орқали экологик маданиятини шакllantiriш. Архив Научных Публикаций JSPI.

Berdiyorova, S., & Uktamova, U. (2020). РОЛЬ ОБЩЕНИЯ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ЛЮДЕЙ И СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ К ОБЩЕНИЮ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Uktamova, U. (2020). АГРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ НА РАЗВИТИЕ ВЗГЛЯДОВ ДЕВУШЕК. EurasianUnionScientists, 1(10 (79)), 45-47.

Uktamova, U. (2020). ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).

- Сунатуллаевна УУ (2021 г., январь). ТАЛАБА КИЗЛАРДА ТАЗЫИК ВА ТАДЖОВУЗГА КАРШИ ДУНЁКАРАШНИ ШАКЛАНТИШ. В евразиатских конференциях (Том 1, № 1, стр. 504-508).
- Уктаева, У. (2020). ЁШЛАР ФАОЛИЯТИНИ БУНЁДКОР ?ОЯЛАР БИЛАН БАНД ҚИЛИШ МУАММОСИ. Архив Научных Публикаций JSPI
- Maxamatova, F. (2020). Таълим-тарбия самарадорлигини оширишда ота-она ибрат намунаси. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Педагогика фанини ў?итиш жараёнида муоммоли ўқитиш технологияларидан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Оилада фарзанд маънавий тарбиясига ру?ий таъсирлар. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Современные тенденции" учитель-ученик" в системе непрерывного образования: проблемы и решения. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Safaraliyevna, M. F. (2021). Pedagogical bases of formation of readiness of students to work. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 528-531.
- Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).
- Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).
- Rahmatova, F. (2020). THE WAYS OF UTILIZING PROBLEMATIC STUDY IN ENHANCING THE MATHEMATICAL MINDOF THE UPCOMING PRIMARY EDUCATION TEACHERS. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2021). Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг математик тафаккурини ривожлантиришда интерфаол таълим методларидан фойдаланиш. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).
- Rahmatova, F. (2020). METHODS OF INNOVATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Main Features of Mathematical Subjects at Primary Schools. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IMPROVING MATHEMATICAL THINKING. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). ТАЛАБАЛАРНИНГ МАТЕМАТИК ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ИМКОНИЯТЛАРИ. Архив Научных Публикаций JSPI.

- Rahmatova, F. (2020). РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКИ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Математика фанини ўқитишининг дидактик таъминоти. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Математик тафаккурни такомиллаштиришда матнли масалалардан фойдаланишда узлуксизлик тамойилининг аҳамияти. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). СОЗДАНИЕ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ ОБЛАСТИ ТВОРЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Талабаларда математик тафаккурни шакллантириш омиллари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-6.
- Rahmatova, F. (2021). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yunalishi bo'yicha faoliyat. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).
- Rahmatova, F. (2021). O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).
- Rahmatova, F. (2021). The Formation Of Research Competencies Of Future Primary School Teachers. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).
- Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).
- Rahmatova, F. (2020). БЎЛАЖАК БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ. Журнал инновации в начальном образовании.
- Davurova, G. (2020). Pedagogika oliv o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rasulova, D. (2020). YOSH OTA-ONALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
- Xamrayeva, N. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA

- ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
- Qayumov, A. (2020). SYSTEM-TECHNOLOGICAL APPROACH TO SPIRITUAL AND AESTHETIC EDUCATION IN THE STUDY OF PEDAGOGICAL DISCIPLINES. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Qayumov, A. (2020). ДУХОВНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Toshnazarova, U. (2021). Мулоқот маданиятининг ривожланиши психологик омиллари. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
- Toshnazarova, U. (2020). Communicative culture of socio-psychological support of professional development of higher edication students. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Toshnazarova, U. (2020). Социально-психологические аспекты общения и коммуникативной культуры. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Davurova, G. (2021). OILAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
- Davurova, G. (2021). TALABA-QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
- Zarmasov, S. (2020). CONDITIONS OF REFLEXIVE SELF-IMPROVEMENT OF THE FUTURE TEACHER. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Zarmasov, S. (2021). O'QUVCHINI KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISHDA O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARNING PEDAGOGIK QARASHLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
- Davurova, G. (2021). OILADA OTA-ONA VA FARZANDLAR O'RTASIDAGI NIZOLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).